

SPORT OTLARIDA MIOZITNING ETIOPATOGENEZI VA DAVOLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11353959>

O‘rmonov A.X.

assistent;

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti;

abdurasulormonov.1998@gmail.com

+998913149501

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport otlarda uchraydigan miozit kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar hamda uning klinik belgilari, patogenezini va davolanishi haqida adabiyotlar tahlili keltirilgan. Sport otlarida uchraydigan miozitning uchrash darajasi, ularga erta tashxis qo‘yish, etiopatogenezini aniqlash, davolash va oldini olishning samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish sharoitida olib borilayotgan tadqiqotlari yoritigan. Shuningdek, mazkur maqolada otlar orasida uchraydigan muskul kasalliklarini, xususan miozit etiopatogenezini, diagnostikasi, davolash va oldini olishning zamonaviy chora-tadbirlarini ishlab chiqish tavsilari berilgan.

Kalit so‘zlar

otlar, sport, muskul, miozit, oqsash, bo‘g‘im, parafin, massaj, tiamin, vitamin E.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi, 11.03.2021-yildagi “Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5024-son qaroriga asosan, Mamlakatimizda yilqichilik, naslchilik va ot sportini rivojlantirish, mahalliy zotdor otlarni ko‘paytirish, zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish, sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida, O‘zbekistonda yilqichilik va ot sportini hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilash, mamlakatda ot sportini aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish ko‘zda tutilgan.

Shu boisdan, sport otlarida uchraydigan miozitning uchrash darajasi, ularga erta tashxis qo‘yish, etiopatogenezini aniqlash, davolash va oldini olishning

samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur ishimizda otlar orasida uchraydigan muskul kasalliklarini, xususan miozit etiopatogenezi, diagnostikasi, davolash va oldini olishning zamonaviy chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Natijalar va ularning tahlili. Mintaqamiz va xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jalik hayvonlar va shu jumladan otlarning yuqumsiz kasalliklari, barcha kasalliklarning o'rtacha 94-96 % ni tashkil qiladi. Sport otlarida shikastlanishlar umumiy kasalliklarning 86 foiziga, 37% esa mushak, pay va bo'g'imlarning patologiyasiga to'g'ri keladi. Yaqin vaqtgacha veterinariya amaliyotida tezkor tashhis qo'yishning ishonchli usullarini topish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda, ular qisqa vaqt ichida ishonchli tashhis qo'yish, o'z vaqtida yetarli davolanishni belgilash va qisqa vaqt ichida terapevtik ta'sirga erishish imkonini beradi [6].

Miozit kasalligini chaqiruvchi omillar. Harakat organlarining shikastlanishi qisqa muddat ta'sir etuvchi kuchli yoki kuchsiz lekin uzoq ta'sir etuvchi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Natijada organ va to'qimalarda o'ziga xos jarayon kechadi. Hayvon organizmining to'qima va organlarini boshqaruv mexanizmlari qo'zg'atuvchi omildan yetarlicha ustun bo'lmasligi mumkin. Buning oqibatida ham shikastlangan organ va to'qimalarda o'zgarish paydo bo'ladi, jarohatlangan organ va to'qimalarning hujayralari elementlarida strukturali o'zgarishlar hosil bo'ladi, ya'ni patologik jarayonlar rivojlanadi [1].

Miozit kopincha otlarda, kam hollarda boshqa hayvonlarda uchraydi. U shikastlar (muskullarning lat yeyishlari, qisman va to'liq uzilishlari) natijasida hamda mioztlarning turli shakllarida hosil bo'ladi. Suyaklashuvchi miozit markaziy asab tizimi zararlanganda rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud [4].

Otlarda kasalliklar kelib chiqishiga har xil etiologik omillar sabab bo'lishi mumkin. Bu omillar kasallikka moyillik tug'diruvchi va kasalliklarni bevosita chaqiruvchilarga bo'linadi. Moyillik tug'diruvchi sabablarga quyidagilar kiradi: hayvonning eksterier nuqsonlari, uni qoniqarsiz sharoitda bo'lish, oziqlantirish va ishlatish, to'yimli oziqalar bilan oziqlantirmaslik, matsion yo'qligi, haddan ziyod ishlatish sabab bo'ladi [2].

Travmatik miozit otlar muvafaqiyatsiz sakrash, yiqilish, zarbalar, haddan og'ir yuklarni tashish va boshqa shunga o'xshash sabablar tufayli yuzaga keladi. Yengil darajadagi shikastlanishlarda mushak tolalarining yaxlitligi buziladi, bu esa qon ketishlar bilan kechadi va seroz tabiatli reaktiv yallig'lanish jarayoni rivojlanadi [7].

Ot sportida shikastlar ko‘pincha ot to‘siqdan sakrab o‘tganida, yiqilganida, mashq qilinadigan joyning yaxshi tayyorlanmasligida, sport qurilmalari va inventarning nosozligida, qoqilgan taqa mashq turiga to‘g‘ri kelmaganida paydo bo‘ladi. Undan tashqari tayanch-harakat apparati tomonidan bir xil takrorlanadigan harakatlarni uzoq vaqt bajarish muskul va paylarning mikrouzilishlariga olib keladi [3].

Patogenez. Miozit hududda mahalliy og‘riq rivojlanishi bilan tavsiflanadi va uning intensivligi vaqt o‘tishi bilan ortadi. Og‘riq mushaklar qisqarishiga olib keladigan harakatlar, shuningdek, ularning palpatsiyasida sezilarli darajada kuchayadi. Mushaklar doim qisqarib turishi sababli, vaqt o‘tishi bilan bo‘g‘inlarda harakatlanishning cheklanishi rivojlanadi. Og‘riq va harakatlar cheklanishi tufayli mushaklarning asta-sekin kuchsizlanib, ularning atrofiyasigacha boradi. Miozitning har qanday shaklida mushak parenximasi va interstitsial to‘qimalar bir vaqtning o‘zida jarayonda u yoki bu darajada ishtirok etadi [8].

Klinik belgilar. Miozit odatda o‘tkir kechadi va 14 kunlarda tuzalish bilan tugaydi. O‘ziga xos belgilari: kasallik to‘satdan paydo bo‘ladi, tana harorati ko‘tariladi, harakatlar chegaralangan bo‘ladi, muskullar og‘riydi, og‘riqlar ko‘chib o‘tadi. Hayvonlar ko‘pincha yotadi, ingraydi, qiynalib o‘rnidan turadi, ayrim muskullarda fibrillyar qisqarishlar kuzatiladi. Hayvon yurgizilganda ko‘chib o‘tadigan oqsoqlik kuzatiladi. Dam olingandan so‘ng oqsash alomatlari kamayadi yoki yo‘qoladi. Ayrim hollarda bo‘yin yoki bel qiyshayib qoladi [9].

Travmatik miozitning klinik belgilari mushaklar shishishi, mahalliy isitma, og‘riq (palpatsiyada) va mos keladigan mushak yoki mushak guruhining disfunktsiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu kasallikning natijasi zarar darajasiga bog‘liq. Yengil holatlarda quyilgan qon so‘riladi va miozitning barcha hodisalari 3-15 kun ichida yo‘qoladi. Keyinchalik, og‘ir holatlarda, rezorbsiya to‘liq bo‘lmasa va qayta shikastlanganda mushakdagi qon kistasi yoki yiringlash paydo bo‘lishi mumkin. Ba‘zida travmatik miozid mushak tolalarida degeneratsiya sodir bo‘ladi, bu esa mushaklar atrofiyasiga, mushakning kontrakturasiga (qisqarishiga) va funktsiyaning buzilishiga olib keladi. Keyinchalik og‘ir holatlarda keng mushak gematomasi va hatto mushaklarning ezilishi paydo bo‘lishi mumkin [7].

Davolash. Miozidlarni davolash ishlari hayvonga tinch sharoit ta‘minlash (dastlabki bosqichda), isituvchi kompress, massaj va elektroterapiyani tayinlashdan iborat. Qon kistasi yoki yiringlash paydo bo‘lganda, ularni jarrohlik amaliyotini o‘tkazib, ochish va davolash kerak [7].

Miozidlarni davolashda amaliyotchilar ko‘pincha empirik tarzda ko‘plab muolajalarni: tiamin, kalsiy glyukonati, E vitamini va selen qo‘shimchalari,

nosteroidli yallig'lanishga qarshi dorilar, trankvilizatorlar va boshqalarni kam muvaffaqiyat bilan sinab ko'rganlar. Hozirgi vaqtda davolanishni tanlashda klinik belgilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi [5].

Kasallik boshlanganida hayvon uchun tinch sharoit yaratiladi; abscess rivojlanishi tahmin qilinadigan joyga iliq nam o'ramlar, spirt ixtiolli kompresslar, balchiq yoki parafin applikatsiyalari, sollyuks lampasi bilan nurlantirish kabi muolajalarni qo'llash belgilanadi. Yiringli nekrotik jarayon chegaralanib, aniq to'siq va flyuktuatsiya beradigan joylar paydo bo'lgandan so'ng jarayon kesiladi va o'lgan to'qimalar chiqarib tashlanadi. Otlarda uchraydigan miozit kasalligi o'z vaqtida davolanmaganda u tana va oyoqlar muskullarida o'zgartirib bo'lmaydigan morfologik va fiziologik o'zgarishlarni chaqirishi mumkin [6].

Mushaklar revmatizmi rivojlanishining dastlabki bosqichida antibiotiklar bilan birgalikda 10% li natriy salisilati eritmasi bir kunga 1-2 marta, 2-3 kun mobaynida venaga yuboriladi (katta hayvonlarga 100-200 ml, kichiklarga 20-50 ml). Natriy salisilati eritmasi tezda davolovchi samara beradi [9].

Xulosalar:

1. Otlarda uchraydigan miozit kasalligi o'z vaqtida davolanmaganda u tana va oyoqlar muskullarida o'zgartirib bo'lmaydigan morfologik va fiziologik o'zgarishlarni chaqirishi mumkin.

2. Otlardagi miozidlarni oldini olish uchun hayvon organizmi himoya kuchlarini oshirish lozim.

3. Otlarda revmatizmli miozidlarni davolashda eng samarali usul bu vena qon tomiri orqali 10% natriy salisilati eritmasini yuborish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Борисевич В.Б. Специальная ветеринарная хирургия. Киев, Издво УСХА, 1993.
2. Дорош М.В. Болезнь лошадей. Вече, 2007.
3. Кузнецов А.Ф. Гигиена содержания животных. Санкт-Петербург, Лан, 2004.
4. Концевая С.Ю.и др. Общая хирургия животных. — М.: Зоомедлит, 2007.
5. Поте.С Миозит лошадей: современные аспекты лечения.СВМ №6/2003.
6. Стекольников, А.А. Содержание, кормление и болезни лошадей / А.А.Стекольников, [и др.]// Санкт-Петербург, 2007. – 624 с.

7. Столыпина.П.А Ульяновский государственный аграрный университет им Хирургия животных.Болезни мышц миозиты, миопатозы.30.05.2014 <https://studfile.net>.

8. Тимофеев С.В.и др. Общая хирургия животных. – М.: Зоомедлит, 2007.- 687 с.

9. Тимофеев С.В, Филиппов Ю.И, Концевая С.Ю. и др. Общая хирургия животных/ Под ред Тимофеева С.В. – М.: Зоомедлит , 2007. – 687 с.

10.Урмонов А. Х., Таштемиров Р. М. СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ //ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА. – 2023. – Т. 3. – №.1.